XALQ DEPUTATLARI CHIRCHIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-20-76-10-150-K/25 Chirchiq shahar

Chirchiq shahrining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1131-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Chirchiq shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Chirchiq shahar byudjetining 2026-yilgi daromadlari **129,9 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **129,9 mlrd.so‘mga** belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Chirchiq shahar byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **579,4 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 568,1 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

2026-yil uchun shahar byudjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari 3-ilovaga;

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 5-ilovaga;

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari 6-ilovaga;

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari 7-ilovaga;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 8-ilovaga;

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 9-ilovaga;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yerlar stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar 10-ilovaga asosan tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Raxmonov, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi G‘.Xamidov, shahar soliq inspeksiyasi A.Xamdamov bilan birgalikda, 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon,

kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi M.Umarov hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Abduraximov**

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Chirchiq shahar mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Chirchiq shahri
	JAMI	**129 937 710**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	10 621 860
2	Foyda solig‘i	5 352 350
3	Aylanmadan olinadigan soliq	18 268 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 780 860
5	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan soliq	9 189 000
	Aksiz solig‘i jami	5 609 040
6	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*5 609 040*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 871 700
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	17 196 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 504 500
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 777 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	14 092 000
14	Davlat boji	1 825 920
15	Yig‘imlar	247 280
16	Jarimalar	1 113 200
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	489 000

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Chirchiq shahar mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	2026-yil	2025-yil	Farqi	
				so‘mda	foizda
Xarajatlar miqdori, jami		**129 937 710**	**115 203 350**	**14 734 360**	**113%**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	***35 882 336***	***39 430 979***	***-3 548 643***	***91%***
	shundan:			*0*	
	"Mening maktabim"	*1 545 000*	*1 444 488*	*100 512*	*107%*
2	**Madaniyat bo‘limi (musiqa maktablari bilan birga)**	***16 016 289***	***1 214 977***	***14 801 312***	***1318%***
3	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	***4 006 101***	***5 694 213***	***-1 688 112***	***70%***
4	**Sport bo‘limi**	***7 538 470***	***7 269 434***	***269 036***	***104%***
5	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	***994 768***	***926 177***	***68 591***	***107%***
6	**Hokimiyat**	***44 930 887***	***36 406 150***	***8 524 737***	***123%***
	shundan:	*0*		*0*	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 285 926*	*2 173 833*	*112 093*	*105%*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 537 955*	*1 515 376*	*22 579*	*101%*
	Madaniyat bo‘limi	*143 786*	*122 350*	*21 436*	*118%*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*137 806*	*0*	*137 806*	
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*139 505*	*0*	*139 505*	
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*453 619*	*0*	*453 619*	
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*141 558*	*0*	*141 558*	
7	*Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi*	*24 148 843*	*22 548 329*	*1 600 514*	*107%*
8	*"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari*	*1 619 709*	*2 010 624*	*-390 915*	*81%*
9	*Zaxira jamg‘armasi*	*1 568 052*	*1 568 052*	*0*	*100%*
10	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	***1 068 273***	***889 709***	***178 564***	***120%***
	shundan:			*0*	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*	*166 604*	*-166 604*	*0%*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 068 273*	*723 105*	*345 168*	*148%*
11	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**19 500 586**	**19 682 502**	***-181 916***	***99%***

Xalq deputatlari Chirchiq shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun shahar byudjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari PROGNOZI

№	Hududlar nomi	**Qo‘shilgan qiymat solig‘i**		**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i**		**Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan ilunadigan soliq**		**Foyda solig‘i**		**benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**		**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**		**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**		**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**		**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**		**Aylanmadan soliq**	**Davlat boji**	**Jarima**	**Yig‘imlar**
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB				
1	**Chirchiq shahri**	**0%**	**6%**	**0%**	**6%**	**100%**	**100%**	**0%**	**5%**	**0%**	**8%**	**0%**	**10%**	**0%**	**10%**	**100%**	**100%**	**100%**	**100%**	**100%**	**8%**	**5%**	**8%**

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

so‘mda

T/p	Shahar va MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun (turar joylar uchun belgilangan o‘sish m’yoridan oshmagan holda)	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
№	**Chirchiq shahri**	**1,16**	**7 821,30**	**1,14**	**715,01**
1	A.Temur MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
2	Adolat MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
3	Axmad Yassaviy MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
4	Bahor MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
5	Baxt MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
6	Birlik MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
7	Bobur MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
8	V.Xaydarov MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
9	Galaba MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
10	Gulzor MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
11	Guliston MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
12	Do'stlik MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
13	Yoshlik MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
14	Iqbol MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
15	Istiqlol MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
16	Iftixor MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
17	Ishonch MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
18	Kamolot MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
19	Kimyogarlar MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
20	Quyosh MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01

21	Madaniyat MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
22	Ma‘rifat MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
23	Mir Alisher MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
24	Mirg'olib MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
25	Muruvvat MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
26	Navbahor MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
27	Navro'z MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
28	Nur MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
29	Semrug' MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
30	Tinchlik MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
31	Turon MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
32	Ulug'bek MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
33	Umid MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
34	X.Maqsudov MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
35	Hamza MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
36	Humo MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
37	Chinor MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
38	Sharq MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01
39	Shodlik MFY	1,16	7 821,30	1,14	715,01

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun** *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)*
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)
1	Chirchiq shahar	1,60

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutlaq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent
1	Chirchiq shahar	1,00

Xalq deputatlari Chirchiq shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala-hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek, boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala-hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Chirchiq shahar	1,10	1,10	1,15	1,10	1,00

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo'jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to'lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Chirchiq shahar	1,15	1,20	1,20	1,20	1,15	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom-ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Mar mar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom- ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Chirchiq shahar	1,25	1,15	1,15	1,25	1,25	1,25	1,30

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-76-10-150-K/25 -son qaroriga
10-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yerlar stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Chirchiq shahar	1,00	1,00

* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar Xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli